

## ABU NASR FOROBIYNING «FOZIL ODAMLAR SHAHRI» ASARIDAGI FALSAFIY G'UYALARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

**Kayumova Nodira Zaynitdinovna**

*“ALFRAGANUS UNIVERSITY” nodavlat oliy ta’lim tashkiloti,  
Ijtimoiy fanlar kafedrası 2-kurs magistranti,*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Abu Nasr Forobiyning Fozil odamlar shahri asarida ilgari surilgan diniy va falsafiy qarashlar ochib berilgan. Xususan, olamlarning paydo bo’lish jarayonlari tahlil qilingan. Qolaversa, ushbu asarning ta’lim va tarbiyaga oid xususiyatlarining bugungi davrdagi ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, forobiy falsafasidagi ijtimoiy-axloqiy jihatlari ochib berilgan.*

**Kalit so’zlar:** *«al-Jam’u bayna ra’yay al-hakimayni Aflotun al-Ilohiy va Arastutolis», «Alloh juz’iy narsalarni bilmaydi», Vujudi vojib, Vujudi mumkin, Aqli kull, Olamiy Aql.*

## ОСОБЕННОСТИ ФИЛОСОФСКИХ ИДЕЙ В ПРОИЗВЕДЕНИИ АБУ НАСРА ФАРАБИ «ГОРОД ДОБРОДЕТЕЛЬНЫХ ЛЮДЕЙ»

**Аннотация:** *В данной статье раскрываются религиозно-философские взгляды, высказанные в произведении Абу Насра Фараби «Город добродетельных людей». В частности, были проанализированы процессы возникновения миров. Кроме того, подчеркивается значимость особенностей этой работы, связанных с образованием и обучением в современную эпоху. Также раскрываются социально-этические аспекты философии фараонов.*

**Ключевые слова:** *«аль-Джамъу байна райай аль-хакимаини Афлотун аль-Илахи и Аристотель», «Аллах не знает физических вещей», Его тело обязательно, Его тело возможно, Акли кулл, Вселенский Разум.*

## PECULIAR ASPECTS OF PHILOSOPHICAL IDEAS IN ABU NASR FARABI'S «THE CITY OF VIRTUOUS PEOPLE»

**Abstract:** *This article reveals the religious and philosophical views put forward in Abu Nasr Farabi's work The City of Virtuous People. In particular, the processes of the emergence of worlds were analyzed. In addition, the significance of the features of this work related to education and training in today's era is highlighted. Also, socio-ethical aspects of Pharaonic philosophy are revealed.*

**Key words:** *«al-Jam’u bayna ra’yay al-hakimayni Aflotun al-Ilahi and Aristotle», «Allah does not know physical things», His body is obligatory, His body is possible, Aqli kull, Universal Mind.*

Abu Nasr Forobiy O'tror shahrida (hozirgi Qozog'istonning Chimkent viloyati hududida joylashgan shahar) 256-257 hijriy sanada tug'ilgan. Yosh va zehni o'tkir [Abu Nasr ilmga erta qiziqdi](#), arab, fors tilarini mukammal darajada o'zlashtirdi. Forobiy sanskrit (qadimiy hind tili) tilini o'rgandi va uni yaxshi bilardi. O'zi turkiy xalqlarga mansub bo'lib ona tilini yaxshi bilar va yoshligida turli tillarni va ilmlarni puhta egallagan edi. U ko'proq Bag'dodda yashagan. Arab tilini juda ham yaxshi bilar edi. Xususan, ushbu davrning yetuk tabiatshunos faylasuflaridan biri sifatida Farobiyning alohida tilga olish lozim. Jumladan, S.Andaluziyaning yozishicha: «Barcha ilmlarni quyidagi sakkiz nom ostida tasnif kiladi: ilmu lug'at (filologiya), mantiqiyot (logika), riyoziyot (matematika), tabiat (tabiatshunoslik), ilohiyot, siyosat (siyosatshunoslik), fiqh (islom huquqi) va kalom»<sup>10</sup>. Shu bilan bir qatorda, uning tabiatshunoslikka oid qarashlari matematikaga oid qarashlari asosida ochib berilganligini ta'kidlash mumkin. U ko'proq falsafa, mantiq va diniy ilmlarga qiziqar edi. Forbiy turli ilmlarni ya'ni falsafa, mantiq, ilohiyot, axloq, siyosat, falakiyot, kimyo, musiqa va boshqa ilmlarga oid o'nlab kitoblarni yozgan. Forbiyning musiqa bo'yicha yozgan kitobi islom madaniyatida yozilgan eng asosiy arabcha kitob bo'lib hozirgacha asosiy manbalardan bo'lib kelmoqda. U «Qonun» nomli musiqa asbobini ixtiro qilgan.

Forbiyning kitoblari ikki turga taqsimlanadi. Birinchisi talim, tarbiya, falsafa va boshqa sohalarda yozgan kitoblari. [Ikkinchisi Aflotun](#), Arastu va ularga ergashganlarning kitoblariga yozgan sharhlari. Ba'zi tadqiqotchilar mazkur kitoblarning soni qirq donaga etganini aytadilar. Forbiy o'zining ta'lim tarbiya faoliyatida Aflotun va Arastu hamda yunon falsafasi va Islom dini orasida muvofiqlashtirishga qattiq uringan. Uning o'zi dinini mahkam tutadigan musulmon bo'lgan. Shu bilan birga, u Aflotun va Arastu mazhabiga o'xshash falsafiy mazhabga asos solgan birinchi musulmon faylasufdir. O'sha paytda Aflotunning «at-Tosu'ot» nomli kitobi tarjima qilinib hato tariqasida Arastuning kitobi deb bilingan edi. Arabchada «Rububiyat» nomi bilan mashhur bo'lgan bu kitobni o'qigan Forobiy Arastuning fikrlari xuddi Aflotunnikiga o'xshash ekanligiga hujjat va dalil topilganidan hursand bo'lgan va mazkur ikki faylasufning boshqa kitoblarini ham muvofiqlashtirish uchun harakat qilgan. [Forbiy ham Aflotunni](#), ham Arastuni bir hilda yaxshi ko'rar va qadrlar edi. Shu bilan birga bu ikki shaxsning fikrlari bir biriga zid bo'lishini tasavvur qila olmas edi. Uning «al-Jam'u bayna ra'yay al-hakimayni Aflotun al-Ilohiy va Arastutolis» - Ikki hakim - Aflotun ilohiy Arastularning fikrlarni jamlash deb atalgan kitob Forbiyning bu borada olib borgan hakatining gultoiji hisoblanadi.

Forbiy o'zining bu ishi ila birinchi bo'lib Islom olamida Aflotun ta'lim tarbiya va axloqiy qarashlari tarqalishiga sabab bo'ldi. Shu bilan birga huddi shu ishning o'zi musulmon faylasuflarga yunon falsafasini diniy masalalarda tap tortmay ishlatishga yo'l ochib berdi. Forbiyning «Fozil odamlar shahri» asari bugungi kun o'quvchilarini axloqan tarbiyali va odobli bo'lishida bir qancha fikrlar, hikmatli iboralar, she'riy matnlar va hikoyalar hamda ibratli hayotiy tajribalarga asoslangan matnlar berilgan<sup>11</sup>. Forbiy o'zining «Fozil odamlar shahri» asarida birinchi bo'lib Alloh taoloning borligiga olamni dalil qilib

<sup>10</sup> Андалузий С. Табокот ул-умам. – Байрут: 1912. – Б. 53.

<sup>11</sup> Xayrullayev M. Forobiy va uning falsafiy risolalari. - Toshkent: 1963.

ketirmaydi. U zotning borligini yolg'iz aqliy dalil bilan isbot qilishning yangi uslubini keltirdi. U bor narsalarni ikkiga - vujudi mumkin va vujudi vojibga taqsimlaydi. Mumkinul vujud dunyodagi mavjudotlar bo'lib ularning bo'lishi mumkin bo'lganidek, bo'lmasligi ham mumkin. Ularga qarasaq ba'zilar yo'qolib, o'rniga boshqalari paydo bo'lib turganini ko'ramiz. Ana o'shalar o'zidan boshqa narsaning ta'siri tufayli o'zgaradi va almashadi. Ularning har biriga alohida nazar solsak ham shu holni ko'ramiz. Bu silsilaning ohirgi nuqtasi bo'lishi kerak. Ana o'sha ohirgi nuqta, hamma mumkinul vujudlarning borib taqaladigan nuqtasi vojibul vujud - vujudi vojib bo'lgan, u bo'lmasa boshqa narsalar bo'lmaydigan zotdir. Shu jihatdan, Forbiyning falsafasida va ta'lim to'g'risidagi axloqida Alloh - vojibul vujudir. Forbiyning Islom aqiydasiga to'g'ri kelmaydigan falsafasidan biri «Alloh juz'iy narsalarni bilmaydi» deyishidir. Shuningdek, Forbiy e'tiqodga [tegishli olamning yaratilishi](#), nafs, aql, nubuvvat va boshqa mavzularda ham falsafa yuritgan. Bilish jarayonini aql va sizgilar orqali yuzaga keladi. Bilish jarayoni cheksiz bo'lib, u inson jonli mushohada va tafakkurining noaniq narsani bilmaslikdan bilishgacha bo'lgan murakkab yo'lni bosib o'tadi. Bu yo'nalish hodislar oqibatini bilishdan ularning sababini anglash, aksidensiyaadan substansiyaga yetib borishni maqsad qilib qo'yadi. [Bilishda aql va mantiq](#), ilmining maqomi beqiyosdir. Mutafakkur talqinida aqliy bilish ikki jihatga ega: birinchidan, u aniqlikdan uzoqlashish va undan umumiy tamon [va jihatlarni ajratib olishni](#), ikkinchi tamondan esa, ushbu umumiylik ko'magida konkret jihatlarning mohiyatiga chuqurlashishni taqozo etadi. Aql vositasida inson ilm-fanni yaratadi. Fan tufayli hodisalar mohiyatini ochib beriladi. Har bir fan insonning muayyan ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. [Bundan tashqari](#), ushbu asarda Forbiy bilish ta'limotining boshqa jihatlarini ham o'rgangan. U ilmiy tadqiqotda kuzatuv, bilish metodlari, jonli mushohadaning cheklanganligi to'risida qiziqarli g'oyalarni ilgari surgan. Forbiy tufayli musulmon Sharqiy ta'lim tarbiya axloqiy va falsafiy tafakkurida mantiq ilmi chuqur iz qoldirdi.

Birinchi sabab Sabab (Sababchisi)dan Ikkinchi borliq; (Aqli kull, Olamiy Aql) vujudga keladi va u dam mutlaqo nomoddiy modiyat (substansiya)dir, u dam moddada urinlashmaydi. Olamiy Aql uzining modiyatini tushunish orqali Birinchi Sababning modiyatini dam tushunadi. U (Birinchi Sababning modiyatini) o'z modiyatini tushunish yo'li bilangina tushuna oladi (boshqacha yo'l bilan uni tushuna olmaydi). Birinchi Mavjudodning moddiyatini Ikkinchi borlik; tushunib yetishidan Uchinchi borliq vujudga keladi va u dam nomoddiy javhar (substansiya)dir, u dam modda urinlashmaydi. Uchinchi borliqning javhari Aqlidir. Uchinchi borliq o'z mohiyatini va (aql yordamida) tushunish orqali Birinchi Sababni ham tushunib yetadi. Uchinchi borliq javharida uning mohiyati bo'lgani sababli undan, zaruriy ravishda o'z o'rnida sabot yulduz olami vujudga keladi va bu u to'rtinchi borliqni tashkil etadi. Bu borliqlarning mohiyati ham moddiy emasdir (Inson vujudi moddiy, vujudni boshqaruvchi rux).

Biz yuqorida aytib o'tgan borliq olamlardan to'qqiztasi azaliy javhariy komillikka egadir. Bulardan ikkitasi (Oy osmoni va Yer osmoni) so'nggi qatorda turadi va avvalgi borliq - olamlarga nisbatan komilligi kamroqdir, chunki ular azaliy javhariy komillik qudratiga ega emas. (Yerdan va Oydan) yuqorilashgan sari borliq - olamlarning komillik qudrati ortib boradi, javharlari va arazlari (o'zgaruvchi sifatleri) Birinchi Sababda avj

martabasiga yetadi. Oy ostidagi (ya'ni, Yerdagi) mavjudotlar tabiatan (samodagi) mavjudotlarga ta'sir kursatolmaydi va o'zlaricha yo tabiiy, yo irodaviy xolatda bo'ladilar<sup>12</sup>. Xususan, bularning borlari, mavjudligi tabiiy zotda bo'lganlari tabiatdagi (to'rt unsur - suv, havo, olov, tuproq) irodaviy holatda bo'luvchilarga (ya'ni, bu unsurlarning turli tarkiblarda aralashuvlariga) xomashyo sifatida xizmat qiladilar. Tabiiy unsurlar bo'lmasa, irodaviy unsurlarning ham bo'lishi mumkin emas. Tabiiy mavjudotlarga: olov, suv, havo, tuproq, hamda shularga taalluqli hovur, alanga va boshqalar; ma'danlar, ya'ni turli toshlar, o'simliklar, aqlsiz jonivorlar va aqlli jonivorlar kiradi.

(Samoviy) jismlarning umumiy tabiatidan zaruriyat sababli Oy ostidagi barcha jismlar uchun umumiy bo'lgan Birlamchi suvrat (shakl) vujudga keladi. Turli jismlarning javharlari mohiyatan turlicha ekanligi sababli jismlar ko'payib ketadi. Jismlarning (tarkibi va) aloqalari ziddiyatli bo'lgani sababli ularning suvratlari, shakllari ham ziddiyatlidir (bu erda turt unsur Birinchi modda - unsurlar uzaro qo'shilganida paydo bo'lgan ziddiyatli aloqalar sababli avvalgi unsur ham (sof bo'lmay) o'zgarib ketadi. Bu unsurlar ko'shilishidan vujudga kelgan narsalar, jismlar turli-tuman suvratlarga, shakllarga kiradi<sup>13</sup>. Unsurlarning turli-tuman tarkiblarda birikuvidan turli-tuman jismlar paydo bo'ladi. Turli-tuman jismlarning o'zaro aloqaga kirishidan (bir-biriga ta'siridan) turli vaqtlarda va turli masofalarda (ba'zan yaqin vaqtda, ba'zan uzoq vaqtda) takrorlanib turadigan, jismlar turiladi. M.M.Xayrullayev fikricha: «Forobiy avvalambor Aristotel ta'limotini tiklash, asoslash va ilg'or tomonlarini so'nggi ilmiy yutuqlar asosida rivojlantirishga harakat qilib, Sharq aristotelizm oqimini vujudga keltirdi»<sup>14</sup>. Bizning fikrimizcha, uning tibbiyot, kimyo va kosmologiyaga oid qarashlari tasirida keyingi davrlarda dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasining dialektik tomondan shakllanilishiga turtki bergan. Xususan, uning ingliz tabiatshunos olimi Charlz Darvindan ancha yillar oldin organik dunyoning evolyutsiyasi haqidagi ilmiy qarashlarni asoslab berishi fan olami uchun ulkan yutuq bo'lgan. Xususan, u barcha mavjudotlarni ilmi ilohiyda mavjudligini, nimaiki ilohiy qazoda bor bo'lgan bo'lsa, u qadar darajasiga tushib kolishini e'tirof etadi. Farobiyning ma'lum ma'noda islom falsafasining asoschisi, deb xulosa qilish mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Андалузий С. Табокот ул-уам. – Байрут: 1912. – Б. 53.
2. Хайруллаев М. Forobiy va uning falsafiy risolalari. - Toshkent: 1963.
3. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – Б. 187.
4. Маънавият юлдузлари: (Марказий Осиёлик машхур сиймолар, алломалар, адиблар)// Тўпловчи ва масъул муҳаррир: М. М. Хайруллаев/.Тулдирилган қайта нашр. – Тошкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашр., 2001. – Б. 76.

<sup>12</sup> Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – Б. 187.

<sup>13</sup> Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – Б. 209.

<sup>14</sup> Маънавият юлдузлари: (Марказий Осиёлик машхур сиймолар, алломалар, адиблар)// Тўпловчи ва масъул муҳаррир: М. М. Хайруллаев/.Тулдирилган қайта нашр. – Тошкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашр., 2001. – Б. 76.